O‘LMAS UMARBEKOV HIKOYALARIDA INSONIY TUYG‘ULAR TARANNUMI

Muhayyo Otaboyeva,
Urganch davlat universiteti magistranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19629752

Annotatsiya. *O‘lmas Umarbekov hikoyalarida sof, samimiy tuyg‘ularning go‘zal, badiiy topilmalarini uchratishimiz mumkin. Ushbu maqolada adibning o‘zbek onalarining mehrli siymosi, javobsiz sevgidan inson qalbining ozorlanishi, or-nomus, ibo-hayo qiz bola uchun naqadar muhim ekanligi kabi bir qancha insoniy xislatlarni uchratishimiz mumkin. Yozuvchining uslubi, badiiy mahorati va hikoyalardagi har bir obraz, voqea hamda oddiy detallarga alohida yondashuv bilan bayon qilishi kitobxonni bir o‘qishdayoq o‘ziga jalb qiladi.*

Kalit so‘zlar: *samimiylik, muhabbat, ziddiyat, or-nomus, sadoqat, mehnatsevarlik.*

Аннотация. *В рассказах Олмаса Умарбекова мы находим прекрасные, художественные проявления чистых, искренних чувств. В этой статье мы можем обнаружить множество человеческих качеств, таких как трогательный образ узбекских матерей, боль человеческого сердца от неразделенной любви и то, насколько важны для девушки честь, скромность и самоуважение. Стиль писателя, художественное мастерство и его уникальный подход к каждому образу, событию и простой детали в рассказах захватывают читателя с первого прочтения.*

Ключевые слова: *искренность, любовь, конфликт, честь, верность, трудолюбие.*

Abstract. *In the stories of Olmas Umarbekov, we can find beautiful, artistic findings of pure, sincere feelings. In this article, we can find a number of human qualities, such as the writer's loving image of Uzbek mothers, the pain of the human heart from unrequited love, how important honor, modesty are for a girl. The writer's style, artistic skill, and his special approach to each image, event, and simple detail in the stories captivate the reader from the very first reading.*

Keywords: *sincerity, love, conflict, honor, loyalty, hardwork.*

Kirish. O‘zbek xalqining iste’dodli yozuvchilaridan biri bo‘lgan O‘lmas Umarbekov ijodiy faoliyatini hikoyachilik bilan boshlab, nasrda qalami o‘tkir ijodkor ekanligini isbotladi. Uning bir-biridan ajoyib hikoyalaridan tortib yirik hajmli romanlarigacha barchasi o‘quvchilar qalbidan joy olgan.

Adabiyotlar tahlili. O‘lmas Umarbekov hikoyalari mavzu va mazmun jihatdan rang-barang. Uning “Qiyomat qarz”, “Kimning tashvishi yo‘q”, “Bahor bulutlari”, “Sevgim, sevgilim”, “Urush farzandi” nomli to‘plamlaridagi hikoyalarida bir-biriga o‘xshamagan insonlarning taqdirlari, his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari bayon qilinadi. O‘lmas Umarbekov hikoylari qahramonlari asosan oddiy, sodda, samimiy, birovning haqqiga xiyonat qilishdan, aldov, riyokorlikdan yiroq shaxslardir. Sevgi -muhabbatda samimiy, va’daga vafo qiladigan, yoriga sadoqatli, o‘z manfaatidan ham o‘zganing foydasini ustun qo‘yguvchi, insoniylikka xiyonat qilmaslikka harakat qilguvchi fidoyi insonlardir.

Qaysi bir shoir bo‘lsin, yozuvchi-yu dramaturg bo‘lsin, uning ijodini ona siymosisiz

tasavvur qilish qiyin. Ona dunyodagi eng buyuk zot, jannat onalar oyog‘i ostida deyilgan. Hadisi sharifda ham bir kishi Rasulullоh s.a.v dan yaxshilik qilishimga kim ko‘proq haqli deya so‘raganlarida, Payg‘ambarimiz 3 marotaba ham onang deya javob beradi. O‘lmas Umarbekovning ham deyarli barcha hikoylarida o‘zbek onalarining qaysidir jihatlari tasvirlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O‘lmas Umarbekov hikoyalari badiiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganilib, undagi insoniy tuyg‘ularning ifodalanishi komparativ va interpretativ metodlar yordamida tahlil qilindi. Asarlardagi obrazlar tizimi, ularning ichki kechinmalari hamda muallif uslubi struktur-semantik tahlil asosida yoritildi. Shuningdek, hikoyalarda aks etgan muhabbat, sadoqat, or-nomus kabi qadriyatlar ijtimoiy-estetik mezonlar doirasida ilmiy asosda umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Ona har qanday sharoit, holatda bo‘lmasin hamisha farzandini o‘ylaydi. Bir so‘z bilan aytganda, ona so‘nggi nafasigacha onaligicha qoladi. Uning uchun farzandi hamisha ardoqli va aziz. O‘lmas Umarbekovning “Sovg‘a”, “Ona” hikoyalarida mehri beqiyos onalar o‘zlarining loqayd, bemehr o‘g‘illarini maqtab, ko‘kka ko‘tarishlari hikoya qilinadi.

“Sovg‘a” hikoyasidagi Shahodat opa shaharga ketgan o‘g‘li Adhamjonning yo‘liga intizor. Ammo o‘g‘li qishloqda yolg‘iz o‘zi yashaydigan onasining hol-ahvolidan bexabar, beparvo. Dunyoda yaxshi insonlar ko‘p ekanligini, yozuvchi onaning yon-atrofidagi qo‘ni-qo‘shnilari misolida tasvirlaydi. Shahodat xolani o‘g‘li eslamasa ham, qo‘shni o‘g‘il qizlar uni juda yaxshi ko‘rishadi. Farzandidan ko‘rmagan mehrni ona qo‘shnisining o‘g‘li Valijondan g‘oyibona tarzda qabul qiladi. Sog‘ingan insonidan bir mujda qabul qilgan odam qanchalar xursand bo‘lishini siz tasavvur ham qila olmaysiz. Valijon xolaning sog‘inchini his qiladi va onaga o‘g‘li bo‘lib maktub yo‘llaydi. Maktub mazuni mana bunday edi:

Assalomu alaykum, oyijon. Sizni sog‘intirib qo‘yganim uchun meni kechiring. Uzoqqa ketib qoluvdim. Oyijon sizni juda sog‘indim. Ahvollaringiz tuzukmi? Xatingizni olib juda xursand bo‘ldim. o‘zingizni urintirmang. Mening ishlarim yaxshi. Yaqinda uchrashib qolamiz.

Oyijon! Sizni Xalqaro xotin-qizlar bayrami – sakkizinchi mart bilan tabriklayman. Xatingizni sog‘inib kutguvchi o‘g‘lingiz – Adham!”

Maktubda o‘g‘ili bo‘lib onasini 8-mart bayram bilan tabriklaganini eshitgan onaning ko‘zlarida yosh qalqiydi, sevinchdan o‘zida yo‘q xursand bo‘ladi.

Muallifning **“Ona”** hikoyasida esa 8-mart bayramida xotiniga deb olingan ko`ylakni onasiga ko‘rsatib, hamma bayramlarni qo‘shib, bitta qilib olib beraman, deydi. Shunda u xafa bo`lmaydi, kelinimga olganing menga olganing, deb o‘g‘lini koyigan bo‘ladi.

Hikoyadagi konflikt yigit bilan vijdoni o‘rtasidagi tortishuvdan iborat. o‘g‘lining

bayram munosabati bilan olib kelgan maxsisini maqtanayotgan qo‘shnisining gapiga uning onasi ham o‘g‘liga bayramga deb olib kelgan ko‘ylakni o‘ziga olib kelganligini, ammo buni kelinimga sovg‘a qilgin deb qaytib berdim, deganini eshitgan o‘g‘il hayratdan lol qoladi. Ona uchun farzandi doim aziz, shuning uchun ham u o‘g‘lini yomonlamaydi, balki uni aqllilikda maqtaydi. Hikoyaning g‘oyasi onalarga qilinishi kerak bo‘lgan har bir muruvvat naqadar xursand qilishi bunday muruvvat ko‘rsatilmasa ham ona uchun farzand har qachon ham aziz ekanligini ko‘rsatish. Hikoyalar kichik bo‘lishiga qaramay kishini o‘ylantiradi. Yozuvchi bu hikoyalari orqali onalar oldida farzandlarning doimo qarzdor ekanliklarini uqtirishga harakat qilgan.

Dunyo yaralibdiki, ishq-muhabbat mavzusi hech eskirmaydigan, har bir insonning hayotidagi eng go‘zal va shirin tuyg‘ularda qatorida turgan. Iste’dodli tatar shoiri Hodi To‘qtash ta’biri bilan aytganda, *”Muhabbat ul o‘zi eski narsa, lekin har bir yurak uni yangilaydi”*. Sevgi-muhabbat har bir ijodkor ijodining asosiy mavzularidan bo‘lib kelmoqda. Insonning bir insonga ko‘ngil qo‘yishi, uni eslaganda beixtiyor yuzida tabassum paydo bo‘lishi, sog‘inishi va undan ayriliqda hijron azoblaridan qiynalishi bularning barchasi oshiq bo‘lgan inson uchun og‘ir hissiyotlardir. Ayniqsa, muhabbat bir tomonlama bo‘lsa, sevilgan kishi – yigit yoki qiz oshiqning sevgisini rad qilsa, unga bee’tibor bo‘lsa, bu oshiqni holdan toydiradi. Ammo sevgisiga sodiq oshiq har qanday vaziyatda ham, qiyinchiliklarga bardosh beradi, holbuki bu qiynoqlar uni ruhan toliqtirgan bo‘lishiga qaramay chin muhabbati g‘alabasi uchun qo‘lidan kelgancha harakat qiladi.

Yozuvchining bu mavzudagi hikoyasiga ”Abdulla qovunchi” hikoyasini misol qilib olishimiz mumkin. Hayotimiz davomida, asosan yigitlarning sevgisi yo‘lida mahbubasining ko‘ngliga yoqishga harakat qilishini kuzatgan bo‘lsak, O‘lmas Umarbekov bu hikoyasida kamdan kam uchraydigan hodisani chiroyli tarzda o‘quvchilarga yetkazib berishga harakat qildi. Ijodkor kitobxonga bir ko‘rishdayoq insonda tanimagan insoniga nisbatan muhabbat paydo bo‘lishi mumkinmi degan savolni beradi va bu savolga javob sifatida qiz va yigitning ilk tanishuvidan keyingi jarayonni ko‘rsatib beradi.

Bu hikoyaning o‘ziga xosligi shundaki, qiz yigitni bir ko‘rishdayoq yoqtirib qoladi, ammo yigit qizning sevgisini sezmaydi. Hijron azoblarida qiynalgan qiz o‘zini chalg‘itish maqsadida, yigitni o‘ylamaslik uchun dalama-dala kezib, ish bilan band bo‘lishga harakat qiladi. Yozuvchi qizning ichki hissiyotlarini juda ta’sirchan tarzda tasvirlagan. Qiz Abdulla qovunchi haqida eshitmaslikka, uni o‘ylamaslikka qanchalik tirishsa ham, ichki his-tuyg‘ularini qanchalik yashirishga urinsa ham, qalbidagi iliq muhabbatini hech so‘ndiradi olmadi. Vaqt o‘tgani sayin bu muhabbat qayta alangaladi, qizning yurak bag‘rini ezib, uning butun fikr-u xayolini band etdi. Yigitning samimiyligi, soddaligi va tirishqoq, izlanuvchanligi qizning unga bo‘lgan munosabatini kundn kun oshirar edi. Qiz ayriliqda qancha iztirob chekmasin, uning muhabbati qanchalik haroratli bo‘lmasin,

sevgisi haqida Abdullaga aytishga hayiqar, ibo-hayosini saqlardi. Bundan keyin, sevgisining bee'tibor qolishidan, rad etilishidan cho'chirdi.

Yozuvchi butun hikoya davomida qizning iztiroblarini-yu uhabbatini ifodalab, hikoya so'nggida yigitning ham qizga nisbatan qalbida ishq yolqinlari mavjud ekanliligini yigit va qizning so'nggi uchrashuvida kitobxonga ochiqlashga harakat qilgan. Abdulla ham qizga nisbatan iliq tuyg'ularni his qilishini va buni qizga aytsa, sevgisining poymol bo'lishidan qo'rqardi. Hikoya boshida bir ko'rishda bir-biriga g'oyibona ko'ngil qo'ygan yigit va qiz asar yakunidagi uchrasvda bir-biriga nisbatan his qilgan tuyg'ularini turli ishoralar, qiziqishlar bilan ifodalashgan. O'lmas Umarbekov bu orqali chin muhabbat vaqt va muhit qiyinchiliklari ustidan g'alaba qilishini, soflik, samimiylik hamisha insonni go'zallashtirishini ta'kidlamoqchi bo'lgan. Yozuvchi hikoya qahramoni bo'lmish qizga nom bermaydi. Asarning birorta joyida qiznining ismini tilga olmaydi. Ammo bu hikoyaning qiymatini aslo tushirmaydi, balki kitobxonni bu qiz bilan qalban, ruhan yaqinlashtiradi. Bundan anglashilgan maqsad shuki, yozuvchi hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish demakdir. Muhabbat – Yaratganning insonlarga bergan ulug' ne'mati. U g'arib ko'ngillarni obod, tog'dek ko'ngillarni vayron qiladi. Uni qadrlagan dil quvonch-u shodlik topadi, asray olmaganlari esa butun umrga undan ayrilishadi. Yozuvchining "Abdulla qovunchi" hikoyasi xotirada nafaqat hikoya tarzida, balki muhabbat qo'shig'i bo'lib o'rnashadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'lmas Umarbekov hikoyalarida oddiy hayotiy voqealar tabiiy va jonli tarzda tasvirlangan. Hikoyalardagi voqelarni tasvirlashda qo'llangan o'xshatishlar o'rnida ishlatilgan. Voqelarni o'qigan kitobxon haqiqiy insonga xos bo'lgan his-tuyg'u va kechinmalarni boshdan kechirishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Buxoriy. Sahihi Buxoriy. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991.
2. O'.Umarbekov. Sevgim – sevgilim // qissa va hikoyalar to'plami. Toshkent, 2023.
3. O'.Umarbekov. Saylanma. 1-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.